

# MUQARNAS VA SHARAF

*Sa'dullayeva Nigora Bahrom qizi<sup>1</sup>*

*Norqulova Ozoda<sup>2</sup>*

*Atabayeva Sevinch<sup>3</sup>*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada XIV va XV asrlarda kelib O`rta Osiyo va Sharq me`morchiligida ilgarida ma`lum bo`lgan asosan gumbazlar ichini bezashga mo`ljallangan yulduzsimon bezak turi – muqarnas haqida gap boradi.*

**Kalit so`zlar:** *muqarnas , taxmon, tokcha Arab ota , G`iyosiddin Koshiy , “Muftahul qisob”, grih, sharafo , iroqi muqarnas, kalla muqarnas, mehrob, gumbaz , yarim gumbaz.*

O`tmish kelajakni belgilaydi – deydi dono xalqimiz .Haqiqatdan ham o`tmishda yuz bergan har bir voqea , hodisa bugungi kun uchun poydevor vazifasini bajaradi . Ayniqsa, xalqlarning ma`naviyatini shakllantirishda,ularni ruhan boyitishda o`tmish voqealarining o`rni beqiyos hisoblanadi. O`zbek xalqining ko`p asrlik tarixida shakllangan xalq amaliy bezak san`ati turlari boy va rang-barang madaniy merosimizning eng ajoyib va ommaviy qismini tashkil etadi. Uning o`zbek diyorida vujudga kelib taraqqiy etgan san`ati turlari bemisoli va betakrorligi bilan dunyoga mashxur. Tasviriy san`atga chuqur, falsafiy yondoshish natijasida shartlilik, stillashtirish, ramziylikka asoslangan badiiy bezak asarlari yaratish kuchaygan. Ushbu tarixiy omil o`zbek milliy bezak san`atining gurkirab rivojlanishiga turtki bo`lgan, bu hozirda jahonga mashhur me`morchilik yodgorliklarimiz ulardagi ganchkorlik, koshinkorlik, naqqoshlik, xattotlik, va boshqa turdagi san`atlar xalqimizning buyuk o`tmishidan dalolatdir. Markaziy Osiyo naqqoshlik san`ati qadimdan dunyoga mashxur.

O`tmishda ota-bobolarimiz qurgan muxtasham binolar hozirgi kungacha maftunkor jilosini yo`qotmagan. Yuksak did bilan ishlangan naqshlar bizni hayratga solib kelmoqda.Shu o`rinda buyuk bobokolonimiz Amir Temurning so`zlarini aytib o`tishni lozim topdim ”Agar kimda – kim bizning qudratimizga shubxa qilsa , biz qurgan binolarga boqsin “. Samarqand, Buxoro, Xiva, Shaxrisabz, Termiz, Toshkent, Qo`qon va boshqa shaharlardagi me`morchilik, xalq amaliy bezak san`ati yodgorliklari o`tmish avlodlarimiz yaratgan barkamol, takrorlanmas va tarixan bebaxo san`at asarlarining namunalari bo`lib, xalqimizning va shubilan birga, jahon madaniyatining durdonalaridan bo`lgan badiiy madaniy merosni tashkil etadi . IX-Xasrlarda

<sup>1</sup> Samarqand Davlat Arxitektura Qurilish Unversiteti - “Ma`daniy meros ob`ektlarini asrash” kafedrası o`qituvchisi nigorasadullayeva21@gmail.com

<sup>2</sup> Samarqand Davlat Arxitektura Qurilish Unversiteti talabasi norqulovaozoda02@gmail.com

<sup>3</sup> Samarqand Davlat Arxitektura Qurilish Unversiteti talabasi rredmiq02@gmail.com





1 – rasm. Registon ansambili

O`rta Osiyoda naqqoshlik san`ati avj olib rivojlandi. Bino devorlariga naqsh solish yuksak darajada rivojlandi, binolarning ichki tomoniga ganch, yog`och o`ymakorligini qo`llash yuksak rivoj topadi. Ayniqsa maqbaralarning peshtoqlari devor va ravoqlari ganch va naqshlar bilan juda nafis bezatilgan. Naqshlar murakkablashib bordi. Ayniqsa bizning binolarimizning gumbaz , yarim gumbaz, muqarnas, peshtoq , ravoq , sharafa va boshqa elementlari diqqatga sazavordir. Bu binolarga ishlatilgan elementlarning vazifalari qanaqa bo`lganligi , binolarga qanday muhtashamlik berishi bizga qiziq bo`lgan tomonlaridan biri hisoblanadi. Bu naqshlar ichida muqarnas haqida ma`lumotga ega bo`lsak.

Muqarnas arabcha so`zdan olingan bo`lib – me`yoriy bezak turi , ravoqli kosachalarning ustma – ust joylashishidan xosil bo`lgan murakkab shakldir. Me`morchiligimizda asosan 4/6/8 burchak bo`lgan mehrob , taxmon yana yarim gumbaz ko`rinishidagi bezak turi hisoblanadi. Birinchi muqarnaslar oddiy ko`rinishga ega bo`lgan, ular keyinchalik vaqt o`tib murakkablashib borgan. Muqarnas ishlanadigan joyiga qarab har xil murakkablikda bo`ladi. Egri sirtga ega bo`lgan ravoqchalarning uchlari oldinga chiqarilib, yuqori qator uchun tayanch xosil qilinadi. Tarixda bu ravoqchalar ko`pincha teng tomonli uchburchakni beradi, 2 va undan ortiq ravoqchalar turli burchaklar ostida o`zaro birikib kosachalar hosil qiladi.



Muqarnasning ko`rinishi ( 2 – va 3 - rasmda tasvirlangan )

2 – rasm Muqarnasning pastdan ko`rinishi 3 - rasm masi girihga o`xshaganligidan uni hajmi girih (girihning cho`zilgani) deb ham ataladi. Girih qat`iy qonunga asoslanganligi uchun taqsim asosini



tashkil etgan yulduzlar va boshqa handasiy shakllarni naqqosh o'z ixtiyori bilan o'zgartira olmaydi; mujassamotni teng bo'laklarga bo'lib, shundan bir bo'lagiga takrorlanuvchi nusxa (taqsim) chizadi. Keng ma'noda muqarnas shakli jihatidan bir necha ko'rinishga ega: sharafa, muqarnas (tor ma'nodagi), kalla muqarnas va iroqi muqarnas. Misol uchun Eronning Isfaxon shahrida joylashgan Shoh masjidida foydalanilgan. Iroqi muqarnas nisbatan keyinroq XVI – XVII asrlarda tarqalgan.

Sharafa — muqarnas turi; Sharafa kosachalar qatori o'zgarimasligi bilan boshqa muqarnas turlaridan farq qiladi. Me'morlikda binolarning devor bilan shifti oralig'i, taxmon, mehrob, minoralarning tepa qismini bezashda qo'llanadi. Sharafa ganch, marmar (hozirda gips, beton va boshqalar)dan ishlanadi. Sharafa. mujassamoti akta yordamida to'g'ridan to'g'ri devorga tushirib o'yiladi, quyma usulida tayyorlangan Sharafa bo'laklari esa bezatiladigan sathga yopishtirib hosil qilinadi. Sharafa. Sharq (O'rta Osiyo, ayniqsa, temuriylar davri) me'morligida yuksak taraqqiy etgan. XX-asr o'rtalaridan O'zbekiston me'morligida Sharafa qaytadan keng qo'llana boshlandi. Sharafa — yunoncha — gultoji, toj degan ma'noni anglatib, binoning ichki va tashsi devorlarining yuqorisidan chiqib turuvchi tashqi bo'rtma qismidir. Sharafa O'rta Osiyodan kelib chiqqan, u arxitektura yodgorliklarida qo'llanilgan.



4 – rasm



5 - rasm

SHARAFANING KO'RINISHI( 4 – VA 5 – RASMLARDA )

Samarqandda XIV—XV asrlarda Temur va temuriylar davrida keng qo'llanilgani to'g'risida Buxoro, Samarqand, Toshkent, Xiva va Farg'ona vodiylarida binolarga qo'llanilgan sharafalarni va ularning turlari haqida tushuncha beriladi. Sharafani fasad interyerning tepa qismiga qo'llamasdan balki tokcha, taxmon, ustun tepasiga, gumbazlarga va boshqa joylarga ham ishlatishgan. O'zbekiston hududida muqarnas ilk bor Tim qishlog'idagi Arab Ota maqbarasida qo'llanilgan.

XII–asrda muqarnaslar hosil bo'ladi va ko'pgina binolarda ishlatila boshlangan. Muqarnaslar oddiy ganch o'ymakorligidan farq qilib, ancha murakkabdir. U taxmon va boshqa joylarda bezak sifatida qo'llanila boshlandi. Binolarnig ichki qismlariga ishlangan muqarnaslar ayniqsa ajralib turadi. XIII–asrda ganchkorlik san'ati yanada yuksaldi. Bunga Afrosiyobda topilgan ajoyib ganch o'ymakorligi ishlari misol bo'la oladi. XIV–XVIII–asrlarda binolarning ichki tomonlarini bezatishda ganchkorlik san'atidan foydalanilgan. Bu davrlarda yangi–yangi naqshlar yaratildi

G'iyosiddin Koshiyning “ Maftahul qisob “ asarida muqarnasni aniq va ravshan ta'riflagan ; uning so'zicha „ muqarnas uyalar (kosachalar) pog'onalaridan ( qatoridan )tashkil topgan yopmadir, u adla'lardan (ya'ni qirralardan ) hosil bo'lgan “ . Bu bilan G'iyosiddin Koshiy muqarnasning ikki asosiy alomati- qirralar (ravoqlar) va pog'onalaridan (qatorlarini)ko'rsatib o'tadi.

Muqarnas temuriylar davri me'morchiligida keng qo'llanilgan. Buxorodagi Mir Arab , Abdulazizxon, Samarqanddagi Ulug'bek madrasalarida , Amir Temur maqbarasida , Shohizinda ansambli va boshqa joylarda keng qo'llanilgan. Muqarnas qadimgi binolarda keng qo'llanilgan bo'lsa, ham zamonaviy binolarimizda muqarnasni ko'rishimiz mumkin. Masalan , Toshkent kuranti , Navoiy



va boshqa binolarda muqarnasdan keng qo'llanilgan. Toshkentdagi Xotira maydonidagi kalla Muqarnas, Alisher Navoiy, Shahidlar xotirasi xiyobonlaridagi gumbazlar orasida sharafani ham ko'rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda madaniy meros va yuksak badiiylik milliy an'anani rivojlantirish undan foydalanish, undagi ijodiy amaliyot uslublarini joriy etish, tabiiy material bilan ishlash, kishilarda, ayniqsa yoshlarda qunt, chidam qat'iyon, xalq amaliy san'atining o'ziga xos qiziqarli turlariga daxldor etish maqsadga muvofiqdir. Bizning ota bobolarimizdan qolib kelayotgan bu tarixiy obidalarni yaxshilab o'rganish va ko'z qorachig'imizday asrab avaylash biz yoshlarning burchimizdir.

### **Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Marjona, K., & Nigora, S. (2023). BASIC PRINCIPLES ADAPTATION OF ARCHITECTURAL MONUMENTS OF UZBEKISTAN. *Science and Innovation*, 2(11), 68-70.
2. Nigora, S. (2023). STUDY AND SCIENTIFIC ANALYSIS OF CONSTRUCTIVE SOLUTION OF ARCHITECTURAL ELEMENTS USED IN CULTURAL HERITAGE OBJECTS IN UZBEKISTAN. *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE*, 602-605.
3. Nigora, S., & Marjona, K. (2023). OZBEKISTON HUDUDIDAGI MADANIY MEROS OBYEKTLARIDA QOLLANILGAN ARXITEKTURAVIY ELEMENTI: SHARAF VA MUQARNASNING QOLLANILISH VA YASALISH BOSQICHLARI. *Miasto Przyszłości*, 42, 128-132.
4. Nayimovna, F. N., & Nigora, S. (2023). Researching Ways to Reconstruct the Areas of Historical Objects of Old Cities in Uzbekistan. *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE*, 2(2), 95-98.
5. Salimov, O. M., Gayratovna, I. D., & Nigora, S. (2022). Use of Local Building Materials in the Natural Climate of Central Asia. *Texas Journal of Engineering and Technology*, 8, 129-130.
6. Gayratovna, I. D., & Nigora, S. (2022). USE OF LOCAL RAW MATERIALS IN THE REPAIR OF PATTERNS AND DECORATIONS OF CENTRAL ASIAN ARCHITECTURAL MONUMENTS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(2), 679-683.
7. Ruxshona, A., & Muxlisa, N. (2024). RECONSTRUCTION AND RESTORATION WORK CARRIED OUT AT THE IMAM AL-BUKHARI COMPLEX. *Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education (2994-9521)*, 2(4), 89-97.
8. Azizbek, T., & Damirjon, A. (2024). Ancient Monument in our Country "Ishratxona". *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(3), 994-999.
9. Sa'dullayeva Nigora, X. S. (2024). Stages of Formation and Application of "Gothic" Architectural Style. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(2), 1004-1008.
10. Qaxramonovich, A. K. (2024). XONBANDI TO'G'ONI. *Miasto Przyszłości*, 45, 606-611.
11. Oybekovna, I. S. QASHQADARYO VILOYATI KO'K GUMBAZ MASJIDI.
12. Dilrabo, K. (2023). PROBLEMS IN THE RECONSTRUCTION OF DECOR ELEMENTS OF ARCHITECTURAL MONUMENTS OF UZBEKISTAN. *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE*, 633-637.
13. Jurayeva, E., & Kholdorova, D. (2023). Amir Temur And The Architectural Decorations Of The Timurid Era Of Central Asia And Their Characteristics. *American Journal of Engineering, Mechanics and Architecture (2993-2637)*, 1(9), 121-125.
14. Jurayeva, E., & Kholdorova, D. (2023). ESTABLISHING AN EXEMPLARY CULTURAL AND RECREATION PARK COMPLEX. *FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA*



- JURNALI| JOURNAL OF SCIENCE, EDUCATION, CULTURE AND INNOVATION, 2(11), 50-54.
15. Yuldasheva, M. K., & Kamilova, M. E. (2023). ANALYSIS OF FOREIGN AND DOMESTIC EXPERIENCE IN DESIGNING HISTORICAL LOW-RISE RESIDENTIAL BUILDINGS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(3), 147-152.
  16. Ulugbek, T., & Marjona, K. (2024). Revitalizing Old Facades: Innovations in Facade System Installation and Preservation. *Indonesian Journal of Innovation Studies*, 25(1), 10-21070.
  17. Marjona, K., & Iroda, S. I. (2023). THE ESSENCE OF THE IMAM AL-BUKHARI COMPLEX IN OUR CULTURAL HERITAGE AND ITS SIGNIFICANCE TODAY. *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE*, 662-665.
  18. Тошев, И. И., & Ураков, О. Х. (2017). Трёхмерная графика. Журнал " Интернаука", (3 (7)), 25.
  19. Жураев, Т. Х., Хамраев, Н. Ш., Ураков, О. Х., Абдуманнонов, М., & Саидова, Г. К. (2020). РЕШЕНИЕ КРАЕВОЙ ЗАДАЧИ ПОСТРОЕНИЯ ПЛОСКИХ СОПРЯЖЕНИЙ ГЕОМЕТРИЧЕСКИМ МОДЕЛИРОВАНИЕМ ДЛЯ НАПРАВЛЯЮЩИХ ПОВЕРХНОСТЕЙ РАБОЧИХ ОРГАНОВ. In *Эффективность применения инновационных технологий и техники в сельском и водном хозяйстве* (pp. 346-348).
  20. Тошев, И. И., & Ураков, О. Х. (2017). Резьба по дереву в Узбекистане. *Интернаука*, (2-1), 11-13.
  21. Khayitboevich, U. O., & Gulnoza, U. (2023). THE HISTORY OF CERAMIC DECORATIONS APPLIED TO CULTURAL HERITAGE OBJECTS. *American Journal of Engineering, Mechanics and Architecture* (2993-2637), 1(10), 210-215.
  22. Khayitboyevich, U. O., & Dilshoda, B. (2023). ENGINEERING CONSERVATION OF CULTURAL HERITAGE OBJECTS. *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE*, 517-520.
  23. Xayitboyevich, U. O. (2023). NUROTA VOHASINING TURAR JOYLARNING KOMPOZITSION VA REJAVIY-TARXIY YECHIMI. *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE*, 171-174.
  24. Khayitboevich, U. O. (2023). Repair Works Carried Out In The Architectural Monuments Of The City Of Nurota. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN*, 4(11), 56-61.
  25. Khaitboevich, U. O. (2021). Ancient nurata karizs. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(8), 115-120.
  26. Жураев, Т. Х., Волошинов, Д. В., & Ураков, О. Х. (2020). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ЛАБОРАТОРИИ ГЕОМЕТРИЧЕСКОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ В РАЗРАБОТКЕ РАБОЧИХ ОРГАНОВ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ТЕХНИКИ. In *Эффективность применения инновационных технологий и техники в сельском и водном хозяйстве* (pp. 95-97).
  27. O`zbekiston milliy ensiklopidiyasi (2000-2005 yillar)
  28. Ensiklopediya. –Toshkent: Fan, 1972. –Т.3. -3-206, 358 b.
  29. Bulatov S.S. O`zbek xalq amaliy bezak san`ati. – Toshkent: Mehnat, 1991. – 69-71 b.
  30. Bulatov S.S. Ganchkorlik. – Toshkent: O`qituvchi, 1989. – 58-62b.
  31. O`zME . Birinchi jild . Toshkent , 2000 yil.
  32. Bulatov S. Ganchkorlik, naqqoshlik va yog`och o`ymakorligiga oid atamalar izohli lug`ati. – Toshkent: Mehnat, 1991.
  33. Qosimov Q. Naqqoshlik. –Toshkent: O`qituvchi, 1982. -24-27 b.

